

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



**«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»**

MAVZUSIDAGI XALQARO II MIY-AMALIY ANJUMAN



**«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»**

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



**“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”**

PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL CONFERENCE



ANDIJON-2024. 10-IYUN

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

ANDIJON DAVLAT CHET TILLARI INSTITUTI



«ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO'NALISHLARI VA CHET
TILLARINI O'QITISHDA INNOVATSION YONDASHUVLAR»

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY ANJUMAN



«СОВРЕМЕННЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ ЯЗЫКОЗНАНИЯ И
ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В ОБУЧЕНИИ
ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ»

МАТЕРИАЛЫ МЕЖДУНАРОДНОЙ НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКОЙ КОНФЕРЕНЦИИ



“MODERN TRENDS IN LINGUISTICS AND INNOVATIVE
APPROACHES TO TEACHING FOREIGN LANGUAGES”
PROCEEDINGS INTERNATIONAL SCIENTIFIC-PRACTICAL
CONFERENCE

2024-YIL 10-IYUN

ANDIJON – 2024

Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirining 2024-yil 18-yanvardagi “2024-yilga mo‘ljallangan xalqaro va respublika miqyosida o‘tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 16-sonli buyrug‘i, shuningdek, mamlakat ilm-fani nufuzini yanada oshirish va xalqaro ilmiy-texnik hamkorlik ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan xalqaro va respublika miqyosidagi ilmiy anjumanlar, simpozium, kongress, seminarlar va boshqa ilmiy hamda ilmiy-texnik tadbirlarni yuqori ilmiy va tashkiliy amaliy darajada samarali o‘tkazilishini ta‘minlash maqsadida Andijon davlat chet tillari institutida “Ingliz tili nazariy aspektlari”, “Ingliz tili va adabiyoti” hamda “Ingliz tili amaliyoti” kafedralari tomonidan “Zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishda innovatsion yondashuvlar” mavzusida xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkazildi.

Mas‘ul muharrir(lar):

f.f.n., prof. S.O.Solijonov

Tahrir hay‘ati:

f.f.d.prof. D.A.Rustamov
f.f.d.prof. M.I.Umarxo‘djayev
PhD. dots. M.A.Qurbonov
f.f.d.prof. G‘.M.Xoshimov
f.f.d.prof. V.A.Vositov
PhD. dots. M.G‘.Xoshimov
p.f.n. prof. Sh.S.Alimov
PhD. G.M.Ibragimova
PhD. Q.Umrzakov
kafedra o‘qituvchisi N.Xamidov
kafedra o‘qituvchisi Z.No‘monova

Tahrir nashriyoti bo‘limi muharriri:

A.A.Xomidov

Ilmiy-amaliy konferensiya materiallariga oid mazkur to‘plam, tilshunoslikning zamonaviy yo‘nalishlari va chet tillarini o‘qitishdagi innovatsion yondashuvlar hamda ulardagi dolzarb masalalarga bag‘ishlanligi bilan ahamiyatlidir.

Mazkur to‘plamdan respublika va xorijiy oliy ta‘lim muassasalarida hamda ilmiy-tadqiqot markazlarida faoliyat olib borayotgan olimlar, professor-o‘qituvchilar, doktorantlar, magistrlar va iqtidorli talabalarning ilmiy maqolalari joy olgan.

To‘plamga kiritilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va me‘yoriy hujjatlar sanasining to‘g‘riligiga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Andijon davlat chet tillari instituti, 2024-yil

TILSHUNOSLIKDA KIRITMA VA KIRISHLAR TADQIQI

Ibragimova Gulchehra Madaminjanovna
Andijon davlat chet tillari instituti
dotsenti v.b., f.f.f.d. (PhD)
Tel: 93 788-90-46 e-mail:
gulchexraibragimova682@gmail.com

Annotatsiya: Maqolada kirish va kiritmalarning o'zbek, rus va xorijiy tilshunoslar tomonidan tadqiq qilinganligi masalasi tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: kiritma, kirish, semantik, leksik, grammatik, konstruksiya.

Аннотация: В статье анализируется проблема вводные и вставные, исследованная узбекскими, российскими и зарубежными лингвистами.

ключевые слова: вводные, вставные, семантически, лексически, грамматически, конструкция.

Annotation: The article analyzes the problem of parenthesis and insertions, studied by Uzbek, Russian and foreign linguists The article analyzes based on the

Key words: parenthesis, insertion, semantically, lexically, grammatically, construction.

Kiritmalar gapning ayrim bo'laklari yoki butun ifodaga bo'lgan so'zlovchining subyektiv munosabatini, emotsional tuyg'ularini ifodalaydi.

Kiritmalar gapning umumiy mazmuniga yoki uning ayrim bo'laklari bilan izohlash munosabatiga kiradi. Kiritmalar gapning ayrim bo'laklari yoki umumiy mazmuniga bo'lgan izoh yoki turli emotsional munosabatlarni anglatib, grammatik belgilariga ko'ra kiritma bo'laklar va kiritma birikmalarga ajratiladi. Kiritma bo'laklar bir so'zdan, birikmalar esa bir necha so'zdan tashkil topadi.

Kirish so'z, kirish gap, izoh bo'laklar o'zbek tili grammatikasining murakkablashgan sodda gaplar bo'limida o'rganiladi. Shu o'rinda kirishlarning murakkab sodda gaplar tarkibidan o'rin olishi masalasi G'.Abdurahmonov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, H.Boltaboyevalar tomonidan nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqilgan. G'.Abdurahmonov va H.Boltaboyevalar murakkablashgan sodda gaplarni ajratilgan bo'lak, undalma va izoh bo'laklar, kirish so'z va kirish gaplar orqali vujudga kelishini aytadi.

G'.Abdurahmonov murakkab gap tarkibida ikki xil predikativ birlik, hukm bo'lishi; bu predikativ birlik yoki hukmning biri asosiy bo'lib, ikkinchisi to'liq bo'lmagan hukm, yarim predikativlik ekanligi; hukm gapning umumiy mazmunidan anglashilsa, to'liq bo'lmagan hukm, yarim predikativlik bu xil gapning ajratilgan bo'laklari yoki undalmalari va yoxud kirish bo'laklari orqali ifodalanishi kabi bir qator farqli belgilarini ajratadi [11, 21].

N.Mahmudov, A.Nurmonovlar esa mazmuniy-sintaktik munosabat tarkibiga kiruvchi vokativ va modal munosabatlar shakliy jihatdan undalma va kirishlar orqali ifodalanishini ta'kidlashadi [16, 17].

O'zbek tilidagi kiritma konstruksiyalar bo'yicha I.Toshaliyev "Hozirgi o'zbek adabiy tilida kiritma konstruksiyalar" nomli monografiyasida 1) kiritma konstruksiyalarning alohida sintaktik kategoriya ekanligini tasvirlash - umumiy

xarakteristikasini berish; 2) kiritma konstruksiyalarning asosiy gap bo‘laklari va qismlariga nisbatan sintaktik-semantik munosabatini belgilash; 3) kiritma konstruksiyalarning tuzilishi va qo‘llanishiga ko‘ra asosiy struktur tiplari hamda funksional-semantik turlarini analiz qilish kabi masalalarni yoritgan [18, 124].

Tilshunos olim I.Toshaliyev o‘zbek tilidagi kiritmalarni semantik jihatdan ham bir necha guruhlarga ajratadi. Biz tahlil qilgan ingliz roman, pesa va esselarida esa olimning tasnifidan chetda qolgan tasviriy, o‘xshatish, turar-joyni izohlash xarakteridagi, abbreviatura ko‘rinishidagi parentez birliklar aniqlanib, misollar yordamida isbotlandi.

Parentez birliklarni gap va matnga munosabati masalasida D.M. Jamoliddinova va bir qator izlanuvchilar uning so‘z, birikma, gap, murakkab butunlik, tinish belgilari shaklidagi turlari aksariyat ishlarda, asosan, o‘zlari mansub bo‘lgan muayyan bir gap doirasida o‘rganilishini va parantezalar bilan mazkur gap o‘rtasida sintaktik aloqaning yo‘qligi yoki qisman mavjudligi turli shakllarda bo‘lishini aytib o‘tishadi [15, 33-35]. Mualliflarning ma‘lumot berishicha, parenteza va u kirgan gap orasidagi semantik-grammatik, mantiqiy-shakliy yoki gap doirasidan tashqariga chiqmagan holda izlanadi. Holbuki, parentezaning haqiqiy sintaktik, kommunikativ, mantiqiy, lingvopoetik mohiyatini gapdan tashqariga chiqmasdan turib tayin etish qiyin. Birgina misol, aytaylik, “*Demak, mehmonlar ertaga keladi*” gapi tarkibidagi “**demak**” parentezasining ma‘nosi faqat shu gap doirasida tushunarli emas, shubhasiz, bu gapdan oldin, masalan, “*Dovon yo‘li bugun yopiq ekan*” yoki “*Mehmonlar bugun band ekan*” kabi yoki yana boshqa qandaydir gaplar bo‘lishi lozim. Shundagina mazkur paranteza o‘z semantikasini namoyon qiladi, ayni paytda faqat muayyan mazmunnigina emas, balki gaplar o‘rtasidagi bog‘lanishlarning ham ifodachisi, hamda matn shakllanishining ham o‘ziga xos unsuri ekanligi ko‘rinadi. Shu oddiy bir misoldan ham ko‘rinib turganiday, parenteza tadqiqi gap doirasida emas, balki undan katta butunlik, ya‘ni matn (diskurs) doirasida olib borilishi maqsadga muvofiq [15, 34].

D.M.Jamoliddinova o‘zining “Badiiy nutqda parantez birliklarning semantik-grammatik va lingvopoetik xususiyatlari” nomli monografiyasida parentez birliklarni lingvopoetik jihatdan tadqiq etgan [14]. Olima parentez konstruksiyalarning ikki funksional tipini, ya‘ni subyektiv-modal (kirish) va obyektiv-izohlovchi (kiritma) tiplarini ajratadi. Bu ikki turdagi parentezani farqlarni misollar yordamida yorqin ko‘rsatib bergan [14, 51].

Olima asosiy gap (yoki matn) va paranteza o‘rtasidagi mazmuniy-mantiqiy va leksik-grammatik aloqani “introduktiv aloqa” [14, 87] deb quyidagi xulosaga keladi: “Parantezalar badiiy matnda gap bo‘lagi, gap va muayyan mikromatn bilan bevosita aloqalanishi, so‘z, so‘z birikmasi, gap (sodda va qo‘shma) va mikromatn shaklidagi parantezalar turli gap bo‘laklari, yaxlit gap bilan aloqalanishi mumkinligi, ammo so‘z va so‘z birikmasi shaklidagi parantezalar mikromatn bilan deyarli aloqalana olmaydi” [14, 87]. Shundan kelib chiqib, olimo parentetik kiritmalarni struktural jihatdan ega, kesim, to‘ldiruvchi, aniqlovchi, hol bilan bevosita aloqalangan turlarga bo‘ladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda biz ingliz roman, pesa va esselaridagi gap bo‘laklari bilan bog‘langan parentez birliklarning ayrimlari ingliz tilida mavjud emasligini, va aksincha, ba‘zilari D.M.Jamoliddinovaning ishiga ko‘ra o‘zbek tilida kuzatilmaganligini, lekin biz tahlilga tortgan ingliz tili materiallarida struktural jihatdan so‘z, otlashgan olmosh, so‘z birikmasi, sifatdoshli birikma, tarz holi vazifasidagi gerundiy, sodda va qo‘shma gap, payt, shart ergash gapi, yil ko‘rsatkichi, boshqa til vositasi orqali ifodalangan, ta‘kidlovchi parentez, qiyos, tarz holi, tarz holini kuchaytiruvchi, qo‘shma ot kesimning ot qismi, ega va kesim inversiyasi ko‘rinishlaridagi parentetik birliklarning uyushiq ega, to‘ldiruvchi, uyushiq to‘ldiruvchi, aniqlovchi va kesim bilan munosabatga kirishuvchi boshqa turlari ham borligini aniqladik.

B.I.Boltayeva “O‘zbek tili frazeologik birliklarining transformatsiyasi (semantik-pragmatik tahlil)” nomli dissertatsiyasida frazeologik birliklarda tarkibiy kiritmalarni aniqlab, kiritmalarning sodda va murakkab, allyuziya, uslubiy distributsiya, so‘z birikmalari yordamida ma‘no (semantika)ning rivojlantirilish turlarga ajratgan [12, 8].

Xorijiy tilshunoslikda parenteza turli grammatik yo‘nalishlar vakillari tomonidan ko‘rib chiqilgan: an‘anaviy tarzda [O.Espersen, 1958; Ch.Friz, 1965]; tizimli ravishda [R.Yakobson 1985; S.Grinbaum, 1996]; umumiy planda [J.Emonds, 1974; X.Xuot 1974; S.Korum, 1975; D.Makkoli 1982], nemis tilida [A.Deperman, 2001]; funksional-pragmatik jihatdan [A.Beten 1976; A.Bassarak 1985, M.Brandt 1994; K.Pitner 1995].

German tilshunosligida gapning ajratilgan bo‘lagi hisoblanmish parentezaning prosodik xususiyatlari D.Bolindjer, A.Kruttenden, D.Kristal; B.Gross va J.Xirshberg, E.Kutik, V.Kuper, S.Boys, D. O‘Shonessi, A.Vixman kabi tadqiqotchilarning ilmiy ishlarida o‘z aksini topgan.

Ingliz tili grammatikasi mutaxassisleri kirish va kiritma vositalar o‘rtasida ularni chegaralash uchun etarli mezonlarning mavjud emasligini aytib, ularni farqlamaydilar, shu sababli u va boshqa elementlarni “parenthesis” atamasi bilan ataydilar, bu esa chalkashlikka olib keladi va kiritma hamda kirish vositalarni ajratishga asos bo‘la olmaydi. Ko‘pchilik xorijiy mamlakatlar tilshunoslari “parenthesis” atamasi deganda ularning grammatik izolyasiyasini birlashtiruvchi belgi deb qarab, infinitivli so‘z birikmalarni, ergash gaplarni, ajratilgan ikkinchi darajali bo‘laklarni, kiritma elementlarni va kirishlarni tushunadilar [7, 6, 3, 5, 10, 8].

Ingliz tilshunoslarining bir qator ishlarida “parenthesis” punktuatsiya qoidalarini o‘rganish bilan bog‘liq deb tinish belgilaridan qavs va tireni o‘rganish bo‘limida ko‘rib chiqiladi. Ko‘plab mualliflarning fikriga ko‘ra, bu punktuatsion belgilar bilan kiritma elementlar gapning asosiy qismiga nisbatan qo‘shimcha, ikkinchi darajali ma‘lumot beradi [1, 2, 9, 4].

Rus tilshunoslaridan T.R.Kotlyar, D.V.Malyavin, O.V.Dolgova (O.V.Aleksandrova), L.L.Baranova, O.A.Kolixalova, O.M. Lashkevich, E. P.Novoseletskaya, E.N.Kozireva, L.V.Fadeeva, L.N.Polikarpova, T.A.Mixaylyuk, V.F.Belova, A.V.Chupsova kabilar german tillaridagi parentezaning og‘zaki va yozma nutqdagi xususiyatlarini tadqiq qilishgan.

Parenteza masalasi uzoq vaqtlardan buyon tilshunoslarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Sintaktik jihatdan bog'langan nutq ba'zan gapning boshqa bo'laklari bilan grammatik jihatdan bog'lanmagan turli birliklarga nisbatan alohidalik (mustaqillik) kasb etadi. 1838-yilda parentetik elementlar A.X.Vostokov [13] tomonidan o'rganilib, ularning nutq hosil qilishdagi muhim roli ko'rsatib o'tilgan.

L.N.Polikarpova ingliz tilidagi kommentativ parentezani sintaktik qurilmalarning birligi sifatida tadqiq qiladi [17]. Muallif kommentativ parentezaning funksional ahamiyatini o'rganib, uning gapdagi illokutiv ma'nosi va kommunikativ vazifasini bajarishdagi tutgan o'rnini tadqiq qilgan.

Keyinchalik lingvistik adabiyotlarda parentetik birliklar va ular bilan bog'liq masalalar sintaksisning o'rganilishi kerak bo'lgan dolzarb masalalaridan biri bo'lib qoldi. Ayniqsa, keyingi yillarda bu sohada jadal olib borilayotgan ko'p ishlar nutqning tuzilishini o'rganishning prinsipial muhimligidan guvohlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Carey G.V. Punctuation. – Cambridge: Univ. Press, 1957. – P. 20.
2. Foster F. Modern Punctuation Hand-Book-London, 1947. – Pp. 56-59.
3. Fowler H., Fowler E. The King's English.– Oxford: Clarendon Press, 1954. – Pp. 94, 271.
4. Gordon I. Practical Punctuation. – M., 1981. – Pp. 44-50.
5. Jespersen O. A Modern English Grammar on Historical Principles:Syntax.– Copenhagen, 1949
6. Jones D. An Outline of English Phonetics.–Cambridge, 1957. – P. 269.
7. Pence R.W., Emery D.W. A Grammar of Present Day English. – London. – P. 140-142.
8. Poutsma H. A Grammar of Late Modern English. – Groningen, 1926. – P. 112.
9. Skelton R. Modern English Punctuation. – London, 1949. – Pp. 24-26.
10. Sweet H. The New English Grammar Logical and Historical. – Oxford: Clarendon Press, 1940. – P. 125.
11. Абдурахмонов Ғ. Ажратилган иккинчи даражали бўлақлар. – Т.: ЎзФА, 1995. – 221 б
12. Болтаева Б.И. Ўзбек тили фразеологик birlikларининг трансформацияси (семантик-прагматик таҳлил). Филол.фан.бўй.фал. док... дисс.авторреф. – Самарқанд, 2019. – Б. 8.
13. Востоков А.Х. Русская грамматика. – Спб: Имп. рос. Академии, 1838. – 450 с.
14. Жамолиддинова Д.М. Бадиий нутқда парантез birlikларнинг семантик-грамматик ва лингвопоэтик хусусиятлари. – Тошкент: Фан, 2011. – 133 б.
15. Жамолиддинова Д.М. ва бошқ. Парантез birlikларнинг гап ва матнга муносабати // Молодой ученый. – 2016. – № 3.1 (107.1). – Б. 33-35.
16. Махмудов Н., Нурмонов А.Ўзбек тилининг назарий грамматикаси (синтаксис). –Тошкент: – Ўқитувчи, 1995. – Б. 17.

17. Поликарпова Л.Н. Комментарийная парентеза как единица композиционного синтаксиса (на материале английского языка): Дисс...канд.филол.наук. – Барнаул, 2011. – 193 с.

18. Тошалиев И. Ҳозирги ўзбек адабий тилида киритма конструкциялар. – Тошкент: Фан, 1976. – 124 б.

ПРОБЛЕМЫ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА ФРАЗ И ИДИОМ

Исхакова Алия

+998902538924 aliya.g1991@gmail.com

Студентка 1 курса магистратуры на
кафедре лингвистики

Андижанского Государственного
Института Иностранных языков

Аннотация: В статье рассматриваются основные проблемы машинного перевода фраз и идиом, включая смысловую неоднозначность, культурные различия и контекстуальную зависимость. Описаны современные подходы к улучшению качества перевода с помощью обученных на больших данных моделей и семантических сетей. Приведены примеры приложений, таких как Google Translate, DeepL и Microsoft Translator, которые предлагают улучшенные решения для перевода фраз и идиом.

Annotatsiya: Maqolada iboralar va idiomalarni mashina tarjimasining asosiy muammolari, jumladan semantik noaniqlik, madaniy farqlar va kontekstual bog'liqlik ko'rib chiqiladi. Katta ma'lumotlarga o'rgatilgan modellar va semantik tarmoqlardan foydalangan holda tarjima sifatini yaxshilashga zamonaviy yondashuvlar tasvirlangan. Google Translate, DeepL va Microsoft Translator kabi iboralar va idiomalarni tarjima qilish uchun takomillashtirilgan yechimlarni taklif qiluvchi ilovalarga misollar keltirilgan.

Ключевые слова: Машинный перевод, фразы, идиомы, смысловая неоднозначность, культурные различия, контекстуальная зависимость, Google Translate, DeepL, Microsoft Translator, нейронные сети, контекстуальные модели.

Введение

Машинный перевод (МП) стремительно развивается, становясь все более важным инструментом для преодоления языковых барьеров. Однако, несмотря на значительные достижения, машинные переводчики сталкиваются с рядом проблем, особенно при переводе фраз и идиом. Эти языковые элементы часто содержат культурные и контекстуальные нюансы, которые сложно передать автоматически.

Основные проблемы при переводе фраз и идиом

1. Смысловая неоднозначность: Многие фразы и идиомы имеют значения, которые не могут быть выведены из их отдельных слов. Например, английская фраза "kick the bucket" буквально переводится как "ударить

Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman

	JIHATLARI Shavkatjonova Rohatoy Shavkatjon qizi	
85.	THE ART OF STYLISTIC DEVICES IN LITERATURE <u>Samatova Zulhumor</u>	269
86.	The Language of War: Exploring the Evolution and Impact of English Military Terms Axmadjonov Abduqodir	273
87.	THE MAIN ISSUES OF COMPILING A DICTIONARY Gofurova Sarvara Madaminjonovna	275
88.	THE USE OF LEXICAL STYLISTIC DEVICES IN MARK TWIN'S WORKS Gofurova Sarvara Madaminjonovna Aigul Mambetalieva	278
89.	THE IMPORTANCE OF ARCHETYPE STUDIES IN LITERATURE Umarov Umidjon Akram o'g'li	282
90.	BOLAGA NOM BERISH VA UNING ETNOLINGVISTIK XUSUSIYATLARI Abdullaev Ziyodbek	286
91.	SOME FEATURES OF VERBAL AND NON-VERBAL TYPES OF COMMUNICATION Nigora Khaydarova	288
92.	NOVERBAL MULOQOTNI O'RGANISHNING AHAMIYATI Yaqubjonova Ro'zixon Mirkomil qizi Mirolimova Rahnamo Davronbek qizi	291
93.	AMERIKA HIKOYANAVISLIGINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI Nasridinova Sitara Utkirovna	294
94.	THE INVESTIGATION OF TERMINOLOGY AND ITS SPECIFIC FEATURES Khashimov Shokhjakhon Chang Ming	297
95.	MULTILINGUALISM AND CODE-SWITCHING: NAVIGATING LINGUISTIC DIVERSITY IN CONTEMPORARY SOCIETY Botirova Zebuniso Solijon qizi	302
96.	TILSHUNOSLIKDA KIRITMA VA KIRISHLAR TADQIQI Ibragimova Gulchehra Madaminjanovna	305
97.	ПРОБЛЕМЫ МАШИННОГО ПЕРЕВОДА ФРАЗ И ИДИОМ Исхакова Алия	309
98.	ЎЗБЕК ТИЛИ НЕКРОНИМЛАРИНИНГ НОМИНАТИВ - МОТИВАЦИОН ХУСУСИЯТЛАРИ Кахаров Шухратбек Турсунович	311
99.	FONEMA - LINGVISTIK BIRLIK SIFATIDA Ziyayev Avaz Ixtiyorovich Dilobar Azimova	313
100.	SPORT TERMINLARI ETIMOLOGIYASI VA LUG'AT BOYLIGINI OSHIRISHDAGI O'RNI Mingboyeva Muborakxon Nabiyevna Sagindikova Rahat Jumabayevna	315
101.	BIRIKTIRUV BOG'LOVCHILI BOG'LANGAN QO'SHMA GAPLARDAGI MAZMUNYI MUNOSABATLAR Rozikova Gulbahor Zaylobidinovna	319
102.	INGLIZ TILIDAGI FRAZEOLOGIZMLARNI TARJIMA QILISH	322